www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO‘STLIGIGA A’ZO MAMLAKATLAR O‘RTASIDA JINOYAT ISHLARI BO‘YICHA O‘ZARO HUQUQIY YORDAMNI AMALGA OSHIRISH MASALALARI

Adizov Alibek Oybek o’g’li

Telefon: +99891-246-88-50

Gmail: alibekadizovofficial@gmail.com

ANNOTATSIYA: Hozirgi davlatlar o‘rtasida har tomolama rivojlanib, kundan-kunga yangi bosqichga chiqib borayotgan xalqaro munosabatlar ko‘p faktorlarga bog‘liq. Ularning asosiylaridan biri, bu davlatlar o‘rtasidagi aloqalarning to‘g‘ri tartibga solinishi deyishimiz mumkin. Bu esa bevosita ular o‘rtasida amalda bo‘lgan tashqi siyosiy faoliyatga aloqador hisoblanadi. Davlatlarning o‘z tashqi siyosatdagi ustuvor yo‘nalish va maqsadlari boshqa davlatlar bilan bo‘lgan munosabatlarda aks etadi.

Ana shunday sharoitda davlat va jamiyat hayotining har tomonlama xavfsiz bo‘lishi, yuqori iqtisodiy taraqqiyotga erishishning yagona sharti sifatida O‘zbekistonning xalqaro maydondagi keng qamrovli siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiymadaniy faoliyatini rivojlantirish, dunyo hamjamiyatining rivojlangan davlatlari bilan teng huquqli va o‘zaro manfaatli aloqalarga kirishish, umuman, tashqi dunyo bilan aloqalarni faol yo‘lga qo‘yish nafaqat O‘zbekiston uchun, balki, qolgan barcha davlatlar uchun ham muhim vazifaga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoev tashabbuslari bilan ishlab chiqilgan va hayotga tatbiq etilayotgan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasining[1] beshinchi muhim yo‘nalishi ham xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish hisoblanadi. Bu esa o‘z-o‘zidan davlatni xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti sifatida suverinitetini va mustaqilligini mustahkamlashni dolzarb shart qilib qo‘yadi.[2]

Jinoyat ishlari bo‘yicha xalqaro hamkorlik va huquqiy yordam yo‘nalishlarini amalga oshirishning eng asosiy maqsadi ham jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlik muqarrarligini ta’minlash ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shunday ekan, amaliyotidan kelib chiqqan holda buni amalga oshirishda asosiy yo‘nalishlar sifatida markaziy o‘rinni egallagan 3 ta asosiy institutni ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq:

- Jinoyat sodir etgan shaxslarni ekstraditsiya qilish;
- Jinoyat ishlari bo‘yicha o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatish;
- Ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni o‘tash uchun, shuningdek, ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash uchun fuqaroligiga tegishli bo‘lgan davlatga topshirish va qabul qilish.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi 4947-sonli "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida" gi farmoni // O‘zbekiston Respublikasining qonunlar to‘plami. - T: 2017.

[2] "2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining beshta ustuvor yo‘nalishidagi harakatlar strategiyasi". O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasini yanada.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

Ushbu protsessual harakatlarni o‘z nomidan ham ko‘rish mumkinki, ular alohida shartnomalarda ham o‘z aksini topadi va ularni jinoyat ishlari bo‘yicha xalqaro hamkorligining alohida yo‘nalishlari sifatida qarash mumkin. Bu kabi shartnomalar qatoriga, BMTning “Ekstraditsiya to‘g‘risida” gi Namunaviy shartnoma, “Jinoyat ishi yurituvi sohasida o‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risida”gi Namunaviy shartnoma, “Shartli ayblangan va ozod qilingan huquqbuzarlar ustidan nazorat qilish uchun topshirish to‘g‘risida”gi Namunaviy shartnoma, “Jinoyat ishi yurituvi uchun topshirish to‘g‘risida”gi Namunaviy shartnoma hamda “Ekstraditsiya to‘g‘risida”gi Yevropa Konvensiyasi, “Jinoyat ishlari bo‘yicha o‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risida”gi Yevropa Konvensiyasi, “Jinoyat sud ish yurituvi uchun topshirish to‘g‘risida”gi Yevropa Konvensiyasi kabi shartnomalardir.[3]

Jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam xalqaro tashkilotlar o’rtasida konvensiyaga asoslangan bo’lib, o‘zarolik prinspi asosida shartnomada belgilangan asoslarga muvofiq amalga oshiriladi. Ularning maqsadi xalqaro va uyushgan jinoyatchilik, terrorizm rivojlanish miqyoslarini to‘xtatish, o‘z mamlakat fuqarolarining hayoti, huquqi va qonuniy manfaatlarini, jamiyat hamda davlat manfaatlarini jinoiy tajovuzkorlikdan himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik samaradorligini yanada oshirishdir.

Jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam va xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda har bir davlatning vakolatli organlari asosiy ro‘l o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasining jinoyat ishlari bo‘yicha o‘zaro huquqiy yordam sohasidagi vakolatli organlariga quyidagilar kiradi:

- Prokuratura,
- Ichki ishlar vazirligi,
- Davlat xavfsizlik xizmati,
- Adliya vazirligi.

Mamlakatimiz o‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risidagi ko‘plab xalqaro shartnomalarning ishtirokchisi bo‘lib, ular orasida 1993 yil 22 yanvarda Minsk shahrida imzolangan MDHga a’zo davlatlar o‘rtasida “Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risida”gi Konvensiyani alohida ta’kidlash zarur.

Konvensiya ishtirokchi davlatlarning adliya institutlari tomonidan fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha yuridik yordam ko‘rsatishning ko‘plab shakllarini nazarda tutadi. Konvensiyaning 1-moddasiga muvofiq, ahdlashuvchi tomonlarning fuqarolari, shuningdek, uning hududida yashovchi boshqa shaxslar sudlarga, prokuraturaga, ichki ishlar organlariga va boshqa organlarga erkin va moneliksiz murojaat qilish huquqiga ega. Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar vakolatiga kiruvchi boshqa ahdlashuvchi tomonlarning muassasalari ushbu ahdlashuvchi tomon fuqarolari bilan bir xil shartlarda arizalar berishi, da’volar qo‘zg‘atishi va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirishi mumkin.[4]

Yuqorida ham ta’kidlaganimizdek O‘zbekiston Respublikasining jinoyat ishlari bo‘yicha xalqaro hamkorligi MDH davlatlari imzolagan ko‘p tomonlama va ikki tomonlama shartnomalarida hamkorlikni ta’minlab kelmoqda. Bunga yorqin misol sifatida 2002 yil 7 oktabrdagi “Fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risida”gi Kishinev Konvensiyasini keltirishimiz mumkin.

Ma’lumot o‘rnida aytishimiz mumkinki, 2019-yil 26 avgust kuni O‘RQ-554-son qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasi Kishinev Konvensiyasiga va 2019 yil 13 dekabr kuni O‘RQ-

[3] Umarxanova. D.Sh., X.R.Ochilov. Xalqaro jinoyat huquqi: darslik / Ma’sul muharrir y.f.d. B.I.Ismailov. – t.: TDYU, 2019.154-b

[4] “Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risida” Konvensiya 22.01.1993. Minsik. 1-modda. https//lex.uz.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

593-son qonuni bilan Minsk Konvensiyasiga doir Bayonnomani (Moskva, 1997 28 mart) ratifikatsiya qildi. Xalqaro shartnomalar doirasida O‘zbekiston tomonidan vakolatli organlar etib Oliy sud, Bosh prokuratura, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Majburiy ijro byurosi, IIV, DXX, Adliya vazirligi, Davlat xizmatlari agentligi, Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Kadastr agentligi, “O‘zarxiv” agentligi va Pensiya jamg‘armasi tayinlandi. Har bir idora uchun vakolatlari doirasidan kelib chiqib, o‘zaro hamkorlik masalalari belgilandi. Vakolatli organlarning rahbarlari Minsk Konvensiyasi va Kishinev Konvensiyasidan kelib chiqadigan O‘zbekiston Respublikasining huquqlarini amalga oshirish hamda majburiyatlarining samarali bajarilishi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi. Boshqa a’zo davlatlarning vakolatli organlari bilan o‘zaro hamkorlik bevosita yuqorida ko‘rsatilgan Respublika organlari yoki ularning hududiy organlari yohud tasarrufidagi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Ular tomonidan mas’ul tarkibiy bo‘linmalar yoki tashkilotlar mustaqil ravishda belgilanadi va bu haqda 3 kundan kechikmasdan TIVga xabar beriladi. Mas’ul etib belgilangan tarkibiy bo‘linmalarning jiddiy zaruratsiz almashtirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.Vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar konvensiyalar doirasida so‘rovlarni ko‘rib chiqish (ijro etish) va yuborishda vakolatli organlar hamda ularning mas’ul tarkibiy bo‘linmalariga tegishli ma’lumotlarni taqdim etishda amaliy yordam ko‘rsatadi.[5]

Yuqorida ham ta’kidlaganimizdek, davlat chegaralari hech qachon jinoyatchilar uchun yengib bo‘lmas to‘siq bo‘lmagan. Bugungi kunda jinoiy harakatlar sodir etgan shaxslar, qoida tariqasida, qiyinchiliksiz chet elda yashirinishlari mumkin bo‘lmoqda. Shu bois bugungi kunda jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam institutini nafaqat milliy qonunchilikda, balki, xalqaro huquq sohasida rivojlantirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam masalalari “Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to‘g‘risida”gi Minsk Konvensiyasi va “Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risida”gi Kishinev Konvensiyalari bilan to‘liq nazariy jihatdan tartibga solingan. Ammo uni amalga oshirishda davlatlar o‘rtasida ba’zi bir kamchiliklarga yo‘l qo‘yilmoqda. Jumladan:

- amaldagi shartnomalar bo‘yicha o‘zaro munosabatlar tamoyilining noto‘g‘ri ko‘rsatilishi yoki xalqaro shartnomalarga noto‘g‘ri havolalar;

- hujjatning yoki so‘ralayotgan davlat organining noto‘g‘ri nomlanishi;

- ko‘rsatmalarda (so‘rovlarda) majburiy ma’lumotlarning va tafsilotlarning yo‘qligi;

- shartnomalarda nazarda tutilgan huquqiy yordam ko‘rsatish doirasiga kirmagan protsessual harakatlar to‘g‘risida so‘rovlar mavjudligi;

- so‘rovlar so‘ralgan protsessual harakatlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi qarorlar bilan birga bo‘lmasligi va boshqalar.

Shu sababli jinoyat ish yurituvini amalga oshiruvchi organlar tomonidan vaziyatni to‘g‘irlash bo‘yicha muayyan choralar ko‘rishlari maqsadga muvofiq; Masalan; jinoyat ishlari bo‘yicha xalqaro huquqiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha yo‘riqnomalar va so‘rovlar sifati uchun mas’ul xodimlar tayinlash; jinoyat ishlari bo‘yicha xalqaro huquqiy yordam ko‘rsatish masalalari o‘quv-uslubiy seminarlarda va shu kabi boshqa tadbirlarda ko‘proq ko‘rib chiqish; tegishli ma’lumotlarni idoraviy nashrlarda e’lon qilib borish.

Biroq, bu chora-tadbirlarning barchasi kerakli natijani bermasligi mumkin. Ko‘p jihatdan bunday holatning sabablari jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordamni amalga oshiruvchi organning

[5] https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/konvenciya_kim_va_nima_uchun_javobgar

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

mustaqil ravishda qaror qabul qilish va buyruqni bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni tezda olish imkonini beradigan mexanizmning amalda yo‘qligidir. Shu sababli zamonaviy axborot tizimlarining imkoniyatlaridan foydalanish vaziyatni sezilarli darajada yaxshi tomonga o‘zgartirishi mumkindek.

Yuqoridagilarga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, jinoyat ishlari bo‘yicha yordam masalasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda ***yagona tizim*** joriy qilish maqsadga muvofiq. Bu tizim ichida jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlari, so‘ralayotgan shaxsning tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari davlatlar tiliga tarjima qilingan varianti, boshqa davlatlarning adliya organlariga ko‘rsatma (so‘rov) yuborishda harakatlar algoritmi, talabnoma (so‘rov)ga ilova qilinadigan hujjatlar va materiallar ro‘yxati, jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi talabnomalar (so‘rovlar) va ularga ilova qilingan hujjatlar namunalari, so‘rayotgan va so‘ralayotgan tomonning milliy qonunchiligidagi farqlar va boshqa muammoli masalalar bo‘yicha tushuntirishlar jamlangan bo‘lishi zarur.

O‘zbekistonda jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordamni amalga oshirishdagi muammolar xususida to‘xtalib o‘tar ekanmiz, xalqaro hamkorlik doirasida tezkor-tergov guruhlarini tuzish va innovatsion texnologiyadan foydalanishda kamchiliklarni mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida ham oxirgi yillarda videokonferensaloqa kabi innovatsion texnologiyadan foydalanishni huquqiy tartibga solishga alohida e’tibor qaratilayotgan bo‘lsa-da, mazkur tajriba tergov yoki sud amaliyotida uchramayotganligini ta’kidlash lozim.

Bu kabi amaliyotdagi bo‘shliqlarni qisman bo‘lsa ham bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi “Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2898-sonli qarorida 2018 yil 1 yanvariga qadar ichki ishlar organlarida so‘roq jarayonini stenografiya qilish, videokuzatuv, shuningdek, tergov harakatlarini audio va video qayd etish tizimlari bilan jihozlangan maxsus xonalar tashkil etilishi hamda tergov departamenti va uning hududiy bo‘linmalari o‘rtasida videokonferensaloqa tizimi joriy etilishi ta’minlanishi belgilab berilgan. Shunday ekan, dastlabki tergov organlarining protsessual faoliyatida videokonferensaloqa kabi yangi texnologiyalarning kiritilishining dolzarbligiga shubha yo‘q. Bugungi kunda O‘zbekiston jinoyatprotsessual qonunchiligida ushbu innovatsion texnologiyadan foydalanishning huquqiy asoslari mavjud emasligi, bizning fikrimizcha, videokonferensaloqani qo‘llash sohalari va imkoniyatini sezilarli darajada qisqartiradi.

Videokonferensaloqa kabi zamonaviy texnologiyaning qo‘llanishini huquqiy tartibga solish natijasida (zarur texnika va aniq metodologik tavsiyalarning mavjudligida) jinoyat ishlari bo‘yicha o‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risidagi talabnomalarni ijro etish muddatining qisqarishiga olib keladi, ularni ko‘rib chiqish sifatini oshiradi, moliyaviy mablag‘lar sarf qilinishini sezilarli darajada kamaytiradi, shuningdek, bir qator tashkiliy masalalarni hal qilinishiga olib keladi[6].

Shuningdek, D.Sh.Umarxanova O‘zbekiston Respublikasining jinoiy ishlari bo‘yicha xalqaro hamkorlik sohasida MDH doirasida imzolagan ko‘p tomonlama va ikki tomonlama shartnomalarida ham hamkorlikda tezkor-tergov guruhlari tuzish kabi shakl nazarda tutilmaganligini ta’kidlagan. Bunga asos sifatida O‘zbekiston Respublikasining JPKsi 354-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 14 martdagi PQ – 2833-sonli qarori va O‘zbekiston Respulikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida xalqaro hamkorlik

[6] Umarxanova D.Sh., X.R.Ochilov. Xalqaro jinoyat huquqi: darslik / ma’sul muharrir y.f.d. B.I.Ismailov. – T.: TDYU, 2019.172-b

doirasida tezkor-tergov guruhlarini tuzish va ularni o‘tkazish xususida normalar mavjud emasligi keltirgan. Bugungi kunda mamlakatimizda xalqaro hamkorlik doirasida tezkor-tergov guruhlarini tuzish “Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabvatlar to‘g‘risida”gi Kishinev Konvensiyalari bilan tartibga solingan. Xalqaro hamkorlik doirasida tezkor-tergov guruhlarini faoliyat tartibi va asoslariga yuqorida izohlicha to‘xtalib o‘tdik. D.Sh.Umarxanovaning o‘z darsligida O‘zbekistonda xalqaro maydonda tezkortergov guruhlarini amalga oshirishni tartibga soladigan konvensiyaning yo‘q deyishiga sabab, bu darslik 2019 yil 09 fevral kuni nashrga tavsiya etilgan. O‘zbekiston Respublikasi esa, 2019 yil 26 avgust kuni O‘RQ-554-son qonuni bilan Kishinev Konvensiyasini ratifikatsiya qilgan. Lekin, D.Sh.Umarxanova ta’kidlaganidek, xalqaro maydonda tezkor-tergov guruhlarini amalga oshirish tizimi va uning amalga oshirish tartibini milliy qonunchillikka kiritish juda zarurdir.

Yana shuni taklif qilishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasining jinoyat protsessual kodeksining 51-moddasida himoyachi ishtirok etishi shart bo‘lgan holatlar aniq keltirilgan. Agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining iltimosiga ko‘ra yoxud ularning roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan himoyachi taklif qilinmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan belgilanadigan advokatlik tuzilmasi rahbari surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning himoyachi tayinlash to‘g‘risidagi qarori yoki sudning ajrimiga binoan qaror yohud ajrim O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasiga kelib tushgan paytdan e’tiboran to‘rt soatdan kechiktirmay jinoyat ishi bo‘yicha himoyachining ishtirokini ta’minlashi ham shart.[7] Shu qoidani ushlab berish va jazoni ijro etish uchun topshirish ishlari bo‘yicha, agar ularnining moliyaviy xolati yoki boshqa sabablarga ko‘ra advokat ishtirok etmayotgan bo‘lsa advokat ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qoidalarni kiritish maqadga muvofiqdir. Chunki bu normaning qo‘shilishi 1948 yil, 10 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko‘rsatmasi orqali qabul qilingan va e'lon qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining muqadimasga ta’kidlanganidek insoniyat oilasining hamma a’zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligi e’tiborga olinadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.[8]

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 55-moddasida aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish kabi harakatlar jazoni yengillashtiruvchi holatlar deb topilishi ta’kidlangan. Shu o‘rinda mahkumlarni jazo o‘tashni davom ettirish uchun topshirish va ushlab berish roziligini inobatga olish, sud tomonidan jazoni yengillashtirish holati sifatida inobatga olinishi haqida qoidani kiritish juda oqilona deb o‘ylaymiz. Bugungi kunda mazkur qoidalar, O‘zbekiston Respublikasida kuchga kirmagan 1998 yilgi “Ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxslarni jazoni o‘tashni davom ettirish maqsadida topshirish to‘g‘risida”gi MDH konventsiyasida[9] o‘z aksini topgan. Mazkur hujjatni ratifikatsiya qilish orqali bir qancha muammolarning yechimini topish, ya’ni jinoyat ish yurituvida xalqaro hamkorlik mexanizmini takomillashtirish va O‘zbekiston Respublikasi mazkur sohaga oid xalqaro majburiyatlarini lozim darajada bajarish imkoniga ega bo‘lar edi.

[7] O‘zbekiston Respublikasining jinoyat protsessual kodeksi 22.09.1994. 51-m.
[8] Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948 yil, 10 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko‘rsatmasi orqali qabul qilingan. Muqaddima.
[9] КОНВЕНЦИЯ О ПЕРЕДАЧЕ ОСУЖДЕННЫХ К ЛИШЕНИЮ СВОБОДЫ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО ОТБЫВАНИЯ НАКАЗАНИЯ КОНВЕНЦИЯ СОДРУЖЕСТВО НЕЗАВИСИМЫХ ГОСУДАРСТВ 6 МАРТА 1998 Г. МОСКВА.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to‘g‘risida”gi Konvensiya. 1993 yil 22 yanvar. Minsk.
2. ЕВРОПЕЙСКАЯ КОНВЕНЦИЯ “О взаимной правовой помощи по уголовным делам”. 20 апреля 1959 г.
3. “Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risida”gi Konvensiya. 2002 yil 7 oktyabr. Kishinev.
4. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948 yil, 10 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko‘rsatmasi orqali qabul qilingan.
5. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi. 08.12.1992
6. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch. T.: —Ma’naviyat.- 2008.
7. I.A.Karimov. Tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.: —O‘zbekiston.- 2001.
8. Umarxanova. D.Sh., X.R.Ochilov. Xalqaro jinoyat huquqi: darslik / Mas’ul muharrir y.f.d. B.I.Ismailov. – T.: TDYU, 2019.
9. Xalqaro huquq. Darslik.Mas’ul muharrir y.f.n., prof. G.Yuldasheva\\ Mualliflar jamosi. – T.: TDYU nashriyoti, 2018.
10. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. 1- tom . Jinoyat haqida ta’limot. darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy-texnika instituti, 2018.
11. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va Qirg‘iziston Respublikasi Bosh prokuraturasi o‘rtasida “Huquqiy yordam va hamkorlik to‘g‘risida” Bitim. (2006 yil 3 oktabr, Toshkent).
12. O‘zbekiston Respublikasining jinoyat protsessual kodeksi 22.09.1994.
13. D.Sh.Umarxanova. Jinoyat ishlari bo‘yicha xalqaro hamkorlik mexanizmini takomillashtirish masalalari. Monografiya / Mas’ul muxarrir: yu.f.d., prof. B.Ismoilov. – Toshkent: TDYuU, 2020. – B.21-22.

FOYDALANILGAN INTERNET MANBALARI.

1. https://Lex.uz
2. https://www.norma.uz
3. https://www.un.org/ru
4. https://ru.sputnik.kz
5. https://docs.cntd.ru
6. https://rm.coe.int
7. https://www.unodc.org
8. http://window.edu.ru